



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021  
maxsus son

**DJURAYEV Risbay**  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Sherzod* SHERMATOV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Alisher* UMAROV  
*Nargiza* RAXMANQULOVA  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Shavkat* QURBONOV  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Islom* ZOKIROV  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA  
*Dusmurod* DJURAYEV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **S.T.Turg'unov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
- 9 **A.G'.Turg'unboyeva**  
O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakterning shakllanishi
- 13 **M.A.Maxsudova**  
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
- 17 **Z.B.Kurbanova**  
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
- 21 **Yo.T.Djumanazarov**  
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
- 25 **S.Yu.Akbarov**  
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
- 28 **A.A.Xusanov**  
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
- 32 **D.D.Oribhojeva**  
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
- 36 **M.B.Badritdinova**  
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 39 **Z.O.Rahmatullayeva**  
Bolalarda emosional intellektni shakllantirishning samarali omillari
- 42 **D.H.Ergasheva**  
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
- 46 **D.H.Ergasheva**  
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
- 50 **N.O.G'aniyeva**  
O'smirlik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
- 54 **N.A.Vaxobova**  
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
- 58 **I.P.Маусупова**  
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
- 64 **Sh.J.To'ychiyeva**  
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
- 66 **M.Abdullayeva, N.Abdullayeva**  
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
- 70 **M.Abdullayeva, D.Abdullayev**  
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
- 74 **Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova**  
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
- 78 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
- 81 **Sh.B.Tursunova**  
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
- 85 **A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva**  
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
- 89 **G.Tulyaganova**  
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
- 93 **O.R.Nabiyeva**  
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
- 98 **M.N.Rustamova**  
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
- 101 **G.Sh.Tursunova**  
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
- 104 **A.N.Qurbonboyev**  
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
- 108 **D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova**  
Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari



## OILADA BOLANI MAKTAB TA'LIMIGA "SHAXS" SIFATIDA TAYYORLASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

**N.A. VAXOBOVA,**

*NamDU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*Ushbu maqolada bolaning ijtimoiylashuvi xususan ijtimoiy moslashuv, bolaga ta'lim-tarbiya berishning, ijtimoiy-psixologik munosabatlari haqida so'z yuritiladi*

**Kalit so'zlar:** *Shaxs rivoji, ijtimoiylashuv, moslashuv, oila, ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim.*

*В данной статье речь пойдет о социализации ребенка, социальной адаптации, социально-психологических взаимоотношениях воспитания и обучения ребенка.*

**Ключевые слова:** *развитие личности, социализация, адаптация, семья, воспитание, дошкольное образование.*

*This article will focus on the socialization of a child, social adaptation, socio-psychological relationships of upbringing and training of a child*

**Key words:** *personality development, socialization, adaptation, family, education, preschool education.*

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jixatdan ularning oilada maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga ruxiy va jismoniy jixatdan tayyor bo'lishi kerak. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar uzluksiz ta'lim tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolani maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini ilgari surdi. Maktabga borish bolaning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolaning asosiy faoliyati o'zgaradi. Endi bolaning asosiy faoliyati, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehni, kuzatuvchanlik, idrok eta olish; mustahkam xotira, mantiqiy tafakkur; ma'noli nutq; tasavvur xayoli; mustaqillik, intizomlilik, batartiblik kabi xususiyatlar; ahloqiy va irodaviy sifatlar umumiy qobiliyatlar shakllangan bo'lishi kerak. Ilmiy manbalarda aytilishicha "Inson o'z hayoti davomida oladigan informatsiyaning 70% ni 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan" degan ilmiy asoslangan fikr bejizga aytilmagan. Darhaqiqat xalqimizda bir naql bor "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir". Shunday ekan, bolalarni tug'ilganidan toki maktabga tayyorlov yoshigacha har tomonlama rivojlantirish lozim.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida bolalik davri muhim o'rin egallaydi. Chunki bu davrdagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikdagi emotsional munosabat bilan bog'liqlikda o'tadi. Ilk bolalik davrida esa bolalar o'z hatti-



Bu yoshdagi bolalarning hatti-harakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muhabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning hatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Keltirilgan mezonlar bolalarni boshlang'ich sinfda muvaffaqiyatli ta'lim olishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda oilada bolaga nisbatan qanday munosabat bildirilsa, bola ham atrofda qiladigan ana shu munosabatni takrorlaydi. Xususan, oilada ijtimoiylashuv jarayoni, tarbiyaviy munosabatlar zo'rovonlik holati bilan amalga oshirilsa, ushbu oilada tarbiya topgan bola ham tashqi muhitga ana shunday salbiy holatlarda namoyon bo'ladi. Bolalarga qanchalik yaxshi ta'lim va tarbiya bersak, o'ylaymizki ular kelajakda vatanga sadoqat ruxida, yetuk inson bo'lib yetishadilar. Demak, oilada ota-onalar xamkorligi xamda tarbiyachi xamkorligida bolalarni maktab ta'limiga psixologik jixatdan tayyorlash va moslashuvini shakllantirishda, uning ruxiyatiga xam e'tibor qaratgan xolda tarbiyalanuvchi shaxsida barcha axloqiy xis-tuyg'ularni tarbiyalasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish xam ancha oson kechadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki uni boshqarish tartiblari. – T: Ma'naviyat, 2000.
2. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi; 1996.
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996.
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati. Milliy g'urur. T.: O'qituvchi, 1999.
5. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. – T aloqachi, 2006.
6. Saidnozaro F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. – T.: Yurist-media markazi, 2007.